

UDK: 37.015.3:371.13

**MAKTABDA SOG‘LOM IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MUHITNI  
SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI  
(QORAQALPOG‘ISTON MISOLIDA)****Tolegenov Mendibek Erkebaevich,***Nukus davlat texnika universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida assistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida sog‘lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirishning mazmuni va uning samaradorligini oshiruvchi innovatsion texnologiyalar tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi o‘quvchi shaxsi shakllanishiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy omillarni aniqlash hamda ta‘lim muassasasida konfliktlarni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy metodlarni tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqolada interfaol o‘yin texnologiyalari, mediatsiya (kelishtiruv) usullari va raqamli monitoring tizimlarining maktab muhitini sog‘lomlashtirishdagi roli amaliy misollar bilan yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy-pedagogik muhit, innovatsion texnologiyalar, maktab iqlimi, sog‘lom muhit, mediatsiya, ijtimoiylashuv, pedagogik hamkorlik, monitoring.

**Аннотация.** В данной статье исследуются содержание формирования здоровой социально-педагогической среды в общеобразовательных школах и инновационные технологии, повышающие её эффективность. Целью исследования является выявление социальных факторов, влияющих на формирование личности учащегося, а также анализ современных методов, направленных на снижение конфликтов в образовательном учреждении. В статье на практических примерах освещена роль интерактивных игровых технологий, методов медиации и систем цифрового мониторинга в оздоровлении школьной среды.

**Ключевые слова:** социально-педагогическая среда, инновационные технологии, школьный климат, здоровая среда, медиация, социализация, педагогическое сотрудничество, мониторинг.

**Abstract.** This article explores the essence of forming a healthy socio-pedagogical environment in secondary schools and the innovative technologies that enhance its effectiveness. The aim of the study is to identify social factors influencing student personality development and to analyze modern methods aimed at reducing conflicts within educational institutions. The article highlights the role of interactive gaming technologies, mediation techniques, and digital monitoring systems in improving the school climate through practical examples.

**Key words:** socio-pedagogical environment, innovative technologies, school climate, healthy environment, mediation, socialization, pedagogical cooperation, monitoring.

**Kirish.** Zamonaviy ta‘lim tizimida maktab faqatgina bilim beruvchi maskan emas, balki shaxsni ijtimoiylashtiruvchi va uning ma‘naviy-ruhiy barqarorligini ta‘minlovchi murakkab ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, maktabda sog‘lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish global pedagogik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta‘kidlanganidek, “o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda sog‘lom ijtimoiy-pedagogik muhitni yaratish ta‘lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishidir”.

Sog‘lom ijtimoiy-pedagogik muhit - bu ta‘lim jarayoni ishtirokchilari (o‘qituvchi, o‘quvchi, o‘ta-ona) o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hamkorlik va kreativlikka asoslangan munosabatlar majmuidir. Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonida maktab

muhitiga an'anaviy yondashuvlar yetarli bo'lmay qolmoqda. Rus tadqiqotchisi H.A.Baeva ta'kidlaganidek, "Ta'lim muhitining psixologik xavfsizligi uning ishtirokchilari salomatligini saqlash va mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanadi". Ayniqsa, o'smirlar o'rtasidagi bulling, agressiya va ijtimoiy loqaydlik kabi holatlarning oldini olishda innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim muassasalari misolida qaraganda, mintaqaviy va etnomadaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish zarurati tug'iladi. J.Usnatdinov o'zining ilmiy izlanishlarida "Maktab jamoasidagi ijtimoiy-pedagogik muhit o'quvchining ma'naviy rivojlanishiga va uning kelgusi faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omildir" deb ta'kidlaydi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi maktabda nizolarni boshqarishning innovatsion mexanizmlari, mediatsiya texnologiyalari va raqamli sotsiometriya usullarini qo'llash orqali ijtimoiy-pedagogik muhitni barqarorlashtirish zarurati bilan asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi - maktabda sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligini nazariy asoslash va amaliy jihatdan tekshirishdan iborat.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqot jarayonida maktabdagi ijtimoiy-pedagogik muhitni kompleks baholash va uni takomillashtirish uchun tizimli va faoliyatli yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot 2024-2025-o'quv yillari davomida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi umumiy o'rta ta'lim maktablari bazasida amalga oshirildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar majmuasi qo'llanildi:

Sotsiometrik tahlil (J.Moreno metodikasi) - sinf jamoasidagi o'zaro munosabatlar, "liderlar" va "rad etilganlar" guruhini aniqlash hamda ijtimoiy integratsiya darajasini o'lchash uchun foydalanildi. Ushbu metod raqamli formatga o'tkazilib, natijalar avtomatik tahlil qilindi.

Pedagogik kuzatuv va monitoring - o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyati va o'qituvchi-o'quvchi muloqoti "sog'lom muhit indikatorlari" asosida kuzatildi. Bunda V.A.Yasvinning "Shaxsning ta'lim muhitini loyihalash" metodikasi asos qilib olindi [4:115]. Innovatsion texnologiyalarni tajriba-sinovdan o'tkazishda quyidagilar amalga oshirildi.

1) Mediatsiya texnologiyasi, bunda maktabda "Tengdosh-tengdoshga" tamoyili asosida nizolarni hal qilish markazlari tashkil etildi.

2) Creative Gaming ya'ni ijtimoiy hamjihatlikni oshirishga qaratilgan rolli va kreativ o'yinlar bloki ishlab chiqildi.

7E modelining ijtimoiy komponenti - ta'lim jarayoniga o'quvchilarning hissiy intellektini (EQ) rivojlantiruvchi metodlar integratsiya qilindi. Olingan natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik metodlardan (Styudent t-kriteriysi) foydalanildi. Bu eksperimentdan oldingi va keyingi ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida pedagogik innovatika va sotsial pedagogikaning so‘nggi yutuqlari, jumladan, Sh.S.Shodmonovanning “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” asaridagi konseptual g‘oyalardan foydalanildi. Eksperiment guruhi sifatida 120 nafarga yaqin o‘quvchi va 20 nafar pedagog xodimlar jalb etildi.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqotning amaliy bosqichida innovatsion texnologiyalarning maktab ijtimoiy-pedagogik muhitiga ta’sirini aniqlash maqsadida eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazildi. Eksperiment guruhida (EG) raqamli monitoring, mediatsiya markazlari va kreativ o‘yinlar texnologiyasi qo‘llanildi, nazorat guruhida (NG) esa an’anaviy pedagogik uslublar saqlab qolindi.

Olingan natijalar maktab muhitining uchta asosiy indikator: ijtimoiy birdamlik, konfliktlik darajasi va pedagogik hamkorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilindi.

*1-jadval. Eksperimentdan oldingi va keyingi ko‘rsatkichlar qiyosiy tahlili (10 ballik shkala asosida)*

Indikatorlar	Guruhlar	Eksperimentdan oldin	Eksperimentdan keyin	O‘shish koeffitsiyenti (%)
Ijtimoiy birdamlik darajasi	EG	5.2	8.4	+61.5%
	NG	5.1	5.6	+9.8%
Konfliktlik darajasi (teskari shkala)	EG	7.8	3.2	-58.9%
	NG	7.5	7.1	-5.3%
Pedagogik hamkorlik (o‘qituvchi-o‘quvchi)	EG	4.9	8.7	+77.5%
	NG	5.0	5.4	+8.0%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, innovatsion texnologiyalar qo‘llanilgan guruhda ijtimoiy birdamlik 61.5% ga oshgan bo‘lsa, konfliktlar darajasi sezilarli ravishda (58.9%) kamaygan. Bu ko‘rsatkichlar o‘quvchilar o‘rtasidagi bulling va o‘zaro nizo holatlarining minimallashtirishidan dalolat beradi.

Shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini baholashda Qoraqalpog‘iston maktablaridagi o‘ziga xosliklar inobatga olindi. P.O‘nalbaeva ta’kidlaganidek, “O‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalar sintezi kutilgan samarani beradi”. Bizning natijalarimizda aynan “etnomadaniy va raqamli texnologiyalar kombinatsiyasi” eng yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi.

*2-jadval. O‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik iqlimni baholashi (sifat ko‘rsatkichlari)*

Baholash mezonlari	Past (%)	O‘rta (%)	Yuqori (%)
Maktabga kelish ishtiyoqi	12	28	60
O‘qituvchilar bilan ishonchli muloqot	8	22	70
Sinfdoshlar bilan o‘zaro yordam	5	30	65

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish faqatgina intizomiy choralar bilan emas, balki tizimli innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirilishi lozim.

Rus olimi H.B.Касьянова o'z tadqiqotlarida "Ta'lim muhitida innovatsion texnologiyalar subyekt-subyekt munosabatlarining katalizatori bo'lib xizmat qiladi." deb ta'kidlaydi. Bizning tadqiqotimizda ham o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi "subyekt-subyekt" munosabati (ya'ni teng huquqli hamkorlik) eng yuqori o'sish koeffitsiyentiga ega bo'ldi (77.5%). Bu esa mediatsiya (kelishtiruv) texnologiyasining samaradorligini isbotlaydi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'istonning chekka hududlaridagi maktablarda innovatsion muhitni yaratishda quyidagi omillar hal qiluvchi rol o'ynadi:

Raqamli monitoring - o'quvchilarning ruhiy holatini muntazam onlayn so'rovnomalar orqali kuzatib borish "erta ogohlantirish" tizimi vazifasini o'tadi.

Mediatsiya - nizolarni ma'muriy jazolash orqali emas, balki "Tengdosh-tengdoshga" metodi orqali hal qilinishi o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirdi.

Kreativ muhit - Sh.S.Shodmonova fikricha, "Pedagogik innovatsiyalar o'quvchining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi shart" [5:104]. Bizning tajribamizda kreativ o'yinlar orqali "rad etilgan" o'quvchilarning 40% ijtimoiy guruhga qayta integratsiyalashdi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida ba'zi qiyinchiliklar ham aniqlandi. Masalan, katta yoshli pedagoglarning raqamli innovatsiyalarni qabul qilishi ancha sekin kechdi. Bu esa "Pedagogik jamoaning innovatsion tayyorgarligi" muammosini alohida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhit - bu dinamik jarayon bo'lib, u doimiy yangilanib turuvchi texnologiyalarni talab qiladi. Tadqiqot natijalari Qoraqalpog'istonning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun metodik tavsiya sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Xulosa.** O'tkazilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-sinov ishlari natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida olingan xulosalar quyidagilarda o'z aksini topadi: Birinchidan, innovatsion texnologiyalarning o'рни beqiyos. Maktab ijtimoiy muhitini sog'lomlashtirishda faqat an'anaviy pedagogik usullar (suhbat, tushuntirish) yetarli emasligi ma'lum bo'ldi. Raqamli sotsiometriya va mediatsiya texnologiyalari guruh ichidagi yashirin konfliktlarni erta bosqichda aniqlash va bartaraf etishda eng yuqori samaradorlikni (58.9% nizo kamayishi) ko'rsatdi.

Ikkinchidan, etnomadaniy omil alohida ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpog'istonning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy muhitida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda milliy qadriyatlar va jamoaviylik (masalan, "el-yurtga xizmat" tamoyili) innovatsion o'yin texnologiyalari bilan uyg'unlashganda, o'quvchilarning maktabga moslashuvi 60% ga yaxshilandi.

Uchinchidan, hamkorlikning yangi modeli e'tibor qaratish lozim. Sog'lom muhitning asosi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlaridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktab ma'muriyati va pedagoglar jamoasining innovatsion tayyorgarligi oshishi bevosita o'quvchilarning ruhiy xotirjamligi va ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi va respublikaning boshqa hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Maktablarda "Ijtimoiy mediatsiya va kelishtiruv" markazlarini tashkil etish. Bunda nizolarni hal qilishda o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga ko'proq vakolat berish lozim. Pedagog kadrlar uchun "Innovatsion ijtimoiy-pedagogik kompetensiya" kurslarini joriy qilish. Maktab psixologlari va sinf rahbarlari uchun raqamli sotsiometrik tahlil asboblardan foydalanish bo'yicha amaliy seminarlar o'tkazish zarur.

Oila-maktab-mahalla hamkorligining raqamli platformasini yaratish. Bu orqali o'quvchining maktabdan tashqaridagi ijtimoiy xulq-atvori va qiziqishlarini doimiy monitoring qilish hamda sog'lom muhitni maktab devorlaridan tashqarida ham davom ettirish imkonini beradi.

Etnopedagogik texnologiyalardan foydalanish ya'ni tarbiya darslarida qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi va milliy qahramonlar obrazidan o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda foydalanish metodikasini kengaytirish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-apreldagi PF-126-son Farmoni bilan tasdiqlangan. – Toshkent: Adolat, 2022. – 48 b.
2. Баева И. А. Психологическая безопасность образовательной среды: учебное пособие для вузов. 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2024. – 265 с.
3. Usnatdinov J. Qaraqalpaqstan mekteplerinde socialliq-pedagogikalıq jumislardı shólkemlestiriw metodikası. Monografiya. – Nókis: «Bilim» baspası, 2023. – 184 b.
4. Ясвин В. А. Школьная среда как предмет измерения: экспертиза, моделирование, проектирование. – Москва: Просвещение, 2025. – 212 с.
5. Shodmonova Sh. S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2023. – 240 b.
6. O'nalbaeva P. Qaraqalpaqstan mekteplerinde jaslar socializaciyasınıń etnomadaniy ózgeshelikleri. Metodikalıq qollanba. – Nókis: «Qaraqalpaqstan» baspası, 2024. – 112 b.
7. Касьянова Н. В. Инновационные технологии управления в образовательной организации: социально-психологический аспект. – Санкт-Петербург: Речь, 2025. – 198 с.
8. Azizov A. A. Ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik monitoring yuritish metodikasi. – Toshkent: «Noshir» nashriyoti, 2024. – 156 b.
9. Ибрагимов Х. И. Современная педагогика: социальные инновации в образовании. – Ташкент: Издательство «Университет», 2023. – 210 с.
10. Tolepbergenova G. Mektep ortalıgında konfliktlerdi basqarıwdıń zamanagóy usılları. – Nókis: «Ilim-pán», 2025. – 134 b.